


Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi



Iso uchun Mudhish Vaqt



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: M. Maillot; Sarah S.

60 ta hikoyadan 38-si

www.M1914.org

Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Iso suvga
cho'mganda,
Xudo shunday
degandi, "Bu
Mening Sevimli
O'g'limdir,
Undan
Mamnunman."
Xudoning
Muqaddas Ruhi
Isoning ustiga
kabutar
qiyofasida
tushgandi.



1

Shundan so'ng,
Xudoning Muqaddas
Ruhi Isoni cho'l tomon
olib bordi. Iso u erda
yolg'iz edi.



2

Iso qirg kun ro'za tutdi. Ya'ni, Iso umuman ovqat yemadi. U nihoyatda och edi.



3

Muqaddas Kitobda aytilishicha yovoyi hayvonlar ham o'sha erda bor edi.



4

Shayton Isoni vasvasaga solish uchun keldi. Uzoq vaqt oldin, Adan bog'ida o'sha Shayton Odam Ato va Momo Havoni vasvasaga solgandi va ular Xudoga bo'ysinishmagandi.



5

Endi ular kabi Iso ham sinovdan o'tishi kerak.



6

Shayton Xudoning O'g'li Isoni ham vasvasaga solishga harakat qiladi.



7

"Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang," deydi Shayton, "bu toshlarni nonga aylantir." Isoning ochligini u bilardi.



8

Xudoning O'g'li toshni nonga aylantira olishini u bilardi. Iso Shaytonning gapiga kirarmikan?




Yo'q! Iso Shaytonning gapiga kirmadi. Aksincha, Iso unga Xudoning Kalomi orqali javob berdi.



"Inson faqat non bilan yashamas, balki Xudoning og'zidan chiqadigan har bir so'z bilan yashaydi."



Shundan so'ng, Shayton Isoni buyuk Quddus shahridagi odamlar Xudoga topinadigan muqaddas ma'badga olib bordi. Endi Shayton nima qilar ekan?



"Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang, pastga sakra" dedi Shayton. "Xudo Kalomida Uning farishtalari Seni qutqaradi deyilgan axir."



"Yo'q!" dedi Iso. "Yana yozilganki ... 'Xudoni imtihon qilma.'"





Shayton yana bir bor harakat qilib ko'rdi. U Isoni shahardan tashqariga, baland tog' cho'qqisiga olib bordi.

15




Isoga erdagi har bir shohliklar ulug'vorligini ko'rsatib, Shayton shunday dedi, "Agar Sen tiz cho'kib menga sajda qilsang, bularning hammasini Senga beraman."

16



"Yo'qol mendan, Shayton!" buyurdi Iso. "Yozilganki ... 'Faqat Xudoga sajda qil va faqatgina Unga xizmat qil.'"

17



Shunda Shayton Isoni tark etdi. Keyin ajoyib hodisa ro'y berdi. Xudo Shaytonga quloq solmagan O'g'li Isoga taskin berish uchun farishtalarni yubordi.

18

Iso uchun Mudhish Vaqt

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 4-bob, Luqo 4-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo lamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!